XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-mart VI-66-34-11-0-K/24 Farg‘ona viloyati

Viloyatdagi issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ko‘rib chiqish va ma’qullash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 15 sentyabrdagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 475-sonli qarori bilan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga issiqlik ta’minoti, suv ta’minoti va oqova suv xizmatlariga, shahar yo‘lovchilar tashish transportida (bundan yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar mustasno) yo‘lovchilar tashish xizmatlariga yangi tariflarni belgilash tavsiya etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan, hududlardagi barcha issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi hududiy organlarining xulosalariga ko‘ra, tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlari bilan ma’qullanganidan keyin Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yil 1 noyabrdagi 07/36-2-5281-sonli xat bilan murojaat qilib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 15 sentyabrdagi 475-sonli qarori ijrosini sifatli bajarilishini ta’minlash hamda issiqlik ta’minoti korxonalarining zarar bilan faoliyat yuritishlarining oldini olish maqsadida belgilangan tartibda issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tariflarni (aholi uchun narxlarni oshirmagan holda) tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda qayta ko‘rib chiqilishi tavsiya etilgan.

Shunga ko‘ra, viloyatdagi issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023 yil 16 yanvardagi VI-63-2-11-0-K/24 -sonli qarori bilan ma’qullanib, viloyat hokimining 2024 yil 17 fevraldagi 103-11-0-Q/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) 2024 yil 12 fevraldagi 143-sonli hamda viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqarish davlat boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – Korxona) 2024 yil 29 fevraldagi 82-sonli aloqa xatlari

orqali murojaat qilib, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024 yil 17 yanvardagi 03/1-3480-sonli topshiriqnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 yanvardagi 07/53-5-569-sonli xatiga muvofiq, aholi uchun bosqichma-bosqich joriy yilning mart va sentyabr oylarida 15 foizdan oshirishni inobatga olish nazarda tutilganligi sababli, ko‘rsatib kelinayotgan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan amaldagi narxlar (tariflar)ga o‘zgartirish kiritib, qayta tasdiqlanishini so‘ragan.

Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ bo‘yicha:

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2024 yil 15 fevraldagi 03/09-01-18/747-sonli xulosa xati taqdim etib, aholi uchun bosqichma-bosqich mart va sentyabr oylarida 15 foizdan oshirgan holda joriy yil 1 martidan 90 447,5 so‘m (QQSsiz) va 1 sentyabrdan (90 447,5 so‘m*15%) 104 014,6 so‘m (QQSsiz) tasdiqlash maqsadga muvofiq bo‘lishini ma’lum qilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi 2024 yil 15 fevraldagi 01-04/599-sonli xulosa xati taqdim etib, ulgurji iste’molchilarga belgilangan 416 471,9 so‘m (QQSsiz) miqdoridagi tarifni o‘zgarishsiz qoldirish hamda aholi uchun joriy kuz-qish mavsumi yakunlangandan so‘ng amaldagi 78 650,0 so‘m tarifni 90 447,5 so‘m (QQSsiz) va 1 sentyabrdan (90 447,5 so‘m*15%) 104 014,6 so‘m (QQSsiz) tasdiqlash maqsadga muvofiqligini ma’lum qilgan.

Viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqirish davlat boshqarmasi bo‘yicha:

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2024 yil 29 fevraldagi 02/09-01-18/1016-sonli xulosa xati taqdim etib, korxona tomonidan yetkazib berilyotgan issiqlik energiyasi uchun ulgurji iste’molchilarga belgilangan 290 458,9 so‘m (QQSsiz) miqdoridagi tarifni o‘zgarishsiz qoldirish hamda aholi uchun mart oyidan amaldagi 67 760,0 so‘m tarifni 15 foiz oshirib 77 924,0 so‘mga (QQSsiz) va sentyabrdan (77 924,0 so‘m*15%) 86 612,6 so‘m (QQSsiz) tasdiqlash maqsadga muvofiq bo‘lishini ma’lum qilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi 2024 yil 29 fevraldagi 01-04/825-sonli xulosa xati taqdim etib, ulgurji iste’molchilarga belgilangan 290 458,9 so‘m (QQSsiz) miqdoridagi tarifni o‘zgarishsiz qoldirish hamda aholi uchun joriy kuz-qish mavsumi yakunlangandan so‘ng amaldagi 67 760,0 so‘m tarifni 15 foizga oshirib, 77 924,0 so‘m (QQSsiz) va 1 sentyabrdan (77 924,0 so‘m*15%) 86 612,6 so‘m (QQSsiz) tasdiqlash maqsadga muvofiqligini ma’lum qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, viloyatda issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, hududlarda issiqlik ta’minoti tizimini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini yanada jadallashtirish, shuningdek issiqlik ta’minoti korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024 yil 17 yanvardagi 03/1-3480-sonli topshiriqnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 yanvardagi 07/53-5-569-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2.Quyidagilar:

Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJning 2024 yil 12 fevraldagi 143-sonli;

viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqirish davlat boshqarmasining 2024 yil 29 fevraldagi 82-sonli;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 15 fevraldagi 03/09-01-18/747-sonli hamda 29 fevraldagi 02/09-01-18/1016-sonli xatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024 yil 15 fevraldagi 01-04/599-sonli hamda 2024 yil 29 fevraldagi 01-04/825-sonli xatlari inobatga olinsin.

3. Mazkur Kengash qarorining 1- va 2-bandlarini inobatga olib, viloyatdagi issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq ma’qullansin.

4. Shu munosabat bilan, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023 yil 16 yanvardagi VI-63-2-11-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur qaror bilan ma’qullangan narxlar (tariflar) viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

6. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Farg‘ona viloyatidagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (S.Jo‘rayev), O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov), Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ (N.Tojiboyev) hamda viloyat “Issiqlik manbai” ishlab chiqirish davlat boshqarmasi (I.Sotvoldiyev) bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan ma’qullangan narxlar (tariflar)ni o‘rnatilgan tartibda qo‘llab borilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini olib borsin.

7. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal ho‘jaligi boshqarmasi (L.Pozilov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov), Farg‘ona shahar hokimligi (V.Nazarov), Qo‘qon shahar hokimligi (M.Usmonov) bilan birgalikda viloyatdagi har bir issiqlik ta’minoti korxonasi bo‘yicha individual tarzda xizmatlar sifatini oshirish, moliyaviy sog‘lomlashtirish hamda kreditor qarzdorlilarini bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasini tasdiqlab, ijrosini nazoratga olish choralarini ko‘rsin.

8. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (D.Djurayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov), Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ (N.Tojiboyev) hamda “Farg‘ona issiqlik manbai” ishlab chiqirish davlat boshqarmasi (I.Sotvoldiyev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda *(viloyat hokimining tegishli qarori rasman e’lon qilingandan keyin ikki kundan kechikmay)* viloyatdagi issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

9. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” hamda “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi X.BOZAROV

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2024-yil 29-martdagi
VI-66-34-11-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2024 yil ___ martdagi _____-sonli qaroriga ilova

Viloyatdagi issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan (1 Gkall issiklik energiyasi uchun) narxlar (tariflar)

Xizmat turi	**Narxlar (tariflar)**		
	Aholi uchun (1 Gkall issiklik energiyasi uchun) (so‘m hisobida)	Byudjet tashkilotlari uchun (1 Gkall issiklik energiyasi uchun QQS siz) (so‘m hisobida)	Boshqa ulgurji iste’molchilar uchun (1 Gkall issiklik energiyasi uchun QQS siz) (so‘m hisobida)
2024 yil 1 mart kuniga qadar			
“Farg‘ona issiqlik manbai” ICH davlat boshqarmasi	67 760	290 458,9	290 458,9
Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ	78 650	416 471,9	416 471,9
2024 yil 1 mart kunidan 2024 yil 1 sentyabr kuniga qadar			
“Farg‘ona issiqlik manbai” ICH davlat boshqarmasi	77 924,0	290 458,9	290 458,9
Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik manbai” MCHJ	90 447,5	416 472,0	416 472,0
2024 yil 1 sentyabr kunidan			
“Farg‘ona issiqlik manbai” ICH davlat boshqarmasi	89 612,9	290 458,9	290 458,9
Farg‘ona shahar “Qirguli issiqlik	104 014,6	416 472,0	416 472,0

manbai” MCHJ			

Asos: *O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024 yil 17 yanvardagi 03/1-3480-sonli topshiriqnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 yanvardagi 07/53-5-569-sonli xati.*